

Andijon viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Andijon viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 19 297,3 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar –18 736,5 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 470,0 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 90,8 mlrd so'mni tashkil qildi.

Andijon viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Asaka (2 018,7 mlrd so'm), Jalaquduq (1 821,9 mlrd so'm), Shahrixon (1 658,3 mlrd so'm), Qo'rg'ontepa (1 539,3 mlrd so'm), Paxtaobod (1 503,7 mlrd so'm) va Marhamat (1 461,4 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xonobod shahri (114,7 mlrd so'm) va Andijon shahri (566,9 mlrd so'm), Ulug'nor tumani (733,6 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.



	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Andijon viloyati	19 297,3	103,8
Andijon shahri.	566,9	101,4
Xonobod shahri	114,7	112,8
Oltinko'l tumani	1103,2	102,6
Andijon tumani	1237,7	100,2
Baliqchi tumani	1274,7	102,2
Bo'ston tumani	791,1	100,1
Buloqboshi tumani	1034,1	100,7
Jalaquduq tumani	1821,9	102,4
Izboskan tumani	1400,3	103,1
Ulug'nor tumani	733,6	100,9
Qo'rg'ontepa tumani	1539,3	102,3
Asaka tumani	2018,7	106,5
Marxamat tumani	1461,4	109,9
Shahrixon tumani	1658,3	101,4
Paxtaobod tumani	1503,7	111,3
Xo'jaobod tumani	1031,7	106,8

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Xonobod (112,8 %), Paxtaobod (111,3 %), Marxamat (109,9 %), Asaka (106,8 %) va Izboskan (103,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Bo'ston (100,1 %), Andijon (100,2 %), Buloqboshi (100,7 %), Ulug'nor (100,9 %) tumanlarida va Andijon (101,4 %) shahrida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2025-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 18 568,6 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 9 783,4 mlrd so'mni (104,1 %), chorvachilik mahsulotlari 8 785,2 mlrd so'mni (103,5 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Asaka (1 978,6 mlrd so'm), Jalaquduq (1 809,7 mlrd so'm), Shahrixon (1 528,0 mlrd so'm) va Qo'rg'ontepa (1 491,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xonobod shahri (114,5 mlrd so'm), Andijon shahri (469,0 mlrd so'm) va Ulug'nor tumani (635,9 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Xonobod shahar (112,8 %), Paxtaobod (111,8 %), Marhamat (109,5 %) va Xo'jaobod (106,7 %) tumanlarida qayd etildi. Bo'ston (100,0 %), Andijon tumani (100,1 %) va Buloqboshi (100,7 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 73,0 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 24,1 foizi fermer xo'jaliklariga, 2,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Asaka (923,1 mlrd so'm), Jalaquduq (892,5 mlrd so'm), Izboskan (731,7 mlrd so'm), Qo'rg'ontepa (724,8 mlrd so'm) va Paxtaobod (679,4 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xonobod shahri (83,5 mlrd so'm), Andijon shahar (300,3 mlrd so'm) va Bo'ston tumani (339,2 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Xo'jaobod (109,2 %), Paxtaobod (109,1 %), Xonobod shahri (108,6 %), Asaka (107,8 %) tumanlarida qayd etildi. Jalaquduq (100,3 %), Andijon (100,4 %), Buloqboshi (100,8 %) va Shahrixon (101,0 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 89,0 ming tonna go'sht, 382,9 ming tonna sut, 314,0 mln dona tuxum, 856 tonna qirqib olingan jun yetishtirildi va 4 921,2 tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni, sog'ib olingan sut – 102,8 % ni, olingan tuxum – 103,4 % ni, qirqib olingan jun – 102,5 % ni, hamda ovlangan baliqlar – 107,7 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 8,2 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 85,5 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 8,4 foizi fermer xo'jaliklari, 90,1 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



**2025-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-iyun 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	89,0	104,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	7,3	110,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	76,1	102,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,6	119,0
Sut, ming tonna	382,9	102,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	32,3	103,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	345,0	102,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,7	108,4
Tuxum, mln. dona	314,0	103,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	44,5	100,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	237,6	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	31,9	134,6
Jun, tonna	856	102,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	102	102,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	745	102,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9	150,0
Baliq, tonna	4 921,2	107,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2 632,3	109,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	90,0	105,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 198,9	105,4

Shu bilan birga, olingan tuxumning 14,2 foizi fermer xo'jaliklariga, 75,7 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 10,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 11,9 foizi fermer xo'jaliklari, 87,0 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 53,5 foizi fermer xo'jaliklariga 1,8 foizi, dehqon va tomorqa xo'jaliklariga 44,7 foizi, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

**Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari hajmi**

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
Andijon viloyati	89 012,0	382 902,0	314 000,0
Andijon shahri.	3 104,6	12 712,9	5 781,2
Xonobod shahri	650,0	5 186,8	3 549,9
Oltinko'l tumani	4 866,2	24 750,2	17 115,9
Andijon tumani	5 878,4	27 115,5	29 082,1
Baliqchi tumani	4 667,4	17 722,8	17 036,2
Bo'ston tumani	3 331,6	15 554,6	13 976,2
Buloqboshi tumani	5 926,3	24 634,0	11 874,6
Jalaquduq tumani	10 256,1	25 000,8	28 419,4
Izboskan tumani	7 590,7	29 069,9	16 615,8
Ulug'nor tumani	3 603,6	19 459,0	10 765,0
Qo'rg'ontepa tumani	5 517,4	47 247,6	13 991,9
Asaka tumani	10 837,6	39 993,2	50 204,0
Marxamat tumani	4 581,1	19 634,0	20 517,3
Shahrixon tumani	6 639,3	28 291,0	28 844,9
Paxtaobod tumani	7 061,8	28 433,4	33 037,6
Xo'jaobod tumani	4 499,9	18 096,3	13 188,0

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Asaka (1 055,5 mlrd so'm), Marhamat (939,5 mlrd so'm), Jalaquduq (917,2 mlrd so'm), Shahrixon (855,8 mlrd so'm) va Paxtaobod (791,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xonobod shahrini (31,0 mlrd so'm), Andijon shahar (168,6 mlrd so'm) va Ulug'nor tumanini (265,4 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Xonobod shahar (122,1 %), Paxtaobod (113,7 %), Mahamat (110,4 %), Xo'jaobod (105,3 %) va Asaka (104,9 %) tumanlarida qayd etildi. Bo'ston (98,5 %), Andijon shahrida (99,6 %), Andijon tumani (99,9 %) va Buloqboshi (100,5 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	670 684,0	102,8
Andijon shahri.	17 003,5	100,1
Xonobod shahri	585,0	110,9
Oltinko'l tumani	53 149,1	102,1
Andijon tumani	40 893,5	100,0
Baliqchi tumani	49 372,7	102,0
Bo'ston tumani	25 044,6	100,0
Buloqboshi tumani	36 606,9	100,6
Jalaquduq tumani	59 521,0	105,1
Izboskan tumani	34 943,2	103,5
Ulug'nor tumani	13 287,5	105,2
Qo'rg'ontepa tumani	64 276,6	100,5
Asaka tumani	75 111,4	107,6
Marxamat tumani	67 136,2	102,0
Shahrixon tumani	59 375,5	100,3
Paxtaobod tumani	46 942,8	105,3
Xo'jaobod tumani	27 434,5	106,0

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Asaka tumani (11,2 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Marhamat (10,0 %), Qo'rgo'ontepa (9,6 %), Jalaquduq va Shahrixon tumanlari (8,9 %) hamda Oltinko'l (7,9 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Xonobod (0,1 %), Ulug'nor (2,0 %) va Andijon shahrida (2,5 %) kuzatildi.

2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xonobod shahri (110,9 %), Asaka (107,6 %), Xo'jaobod (106,0 %), Paxtaobod (105,3 %), Ulug'nor (105,2 %) Jalaquduq (105,1 %), Izboskan (103,5 %), Oltinko'l (102,1 %) tumanlarida qayd etildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025-yilning 1-iyul holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 153,6 ming boshga yetdi, (2024-yilning 1-iyul holatiga nisbatan 1,8 % ga ko'p), sigirlar 394,8 ming boshga (2,1 % ga ko'p), qo'y va echkilar 1 573,9 ming boshga (1,6 % ga ko'p), parrandalar 10 269,7 ming boshga (1,9 % ga ko'p) yetdi.

2025-yilning 1-iyul holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar ming bosh	1 153,6	101,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	74,5	103,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 068,3	101,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	10,8	104,1
shundan sigirlar ming bosh	394,8	102,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	29,3	107,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	359,5	101,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,0	106,3
Qo'y va echkilar ming bosh	1 573,9	101,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	88,8	102,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 472,1	101,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	13,0	138,3
Otlar bosh	7 446	101,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 729	101,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	5 610	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	107	142,7
Parrandalar ming bosh	10 269,7	101,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 526,3	104,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	5 783,7	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 959,7	102,7

2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,5 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,6 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 7,4 foizi fermer xo'jaliklariga, 91,1 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 5,6 foizi fermer xo'jaliklariga, 93,5 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 14,9 foizi fermer xo'jaliklariga, 56,3 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 28,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2025-yilning 1-iyul holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

(ming bosh)

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Andijon viloyati	1 153,6	1 573,9	10 269,7
Andijon shahri	27,1	54,0	87,8
Xonobod shahri	8,9	19,2	54,5
Oltinko'l tumani	84,1	81,1	334,2
Andijon tumani	67,2	98,6	768,0
Baliqchi tumani	78,4	79,5	553,3
Bo'ston tumani	53,7	51,1	306,7
Buloqboshi tumani	59,5	127,5	304,6
Jalaquduq tumani	99,3	130,2	867,9
Izboskan tumani	80,5	98,7	356,3
Ulug'nor tumani	46,3	64,7	614,8
Qo'rg'ontepa tumani	100,2	164,8	549,7
Asaka tumani	104,9	160,2	1429,7
Marxamat tumani	94,7	155,8	538,0
Shahrixon tumani	96,4	115,4	1004,1
Paxtaobod tumani	91,0	89,8	2146,2
Xo'jaobod tumani	61,4	83,2	353,8

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sultari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://andstat.uz/uz/default/press-relizlar/12820-2025>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
O. Mamajonov
74 224-80-00 (6110)

Manzil:

